TASDIQLAYMAN
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti rektori
Sh.A.Boymuradov
«___» _____ 2025-yil

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETIDA TA'LIMIY VA MA'RIFIY FAOLIYATDAN TENG FOYDALANISH SIYOSATI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Siyosat Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) tomonidan tashkil etiladigan ta'limiy, ma'rifiy, uzluksiz ta'lim va jamoatchilikka yo‘naltirilgan tadbirlardan teng foydalanishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

1.2. Siyosat Universitetning barcha tarkibiy bo‘linmalari hamda mazkur tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etuvchi mas'ul shaxslar uchun amal qiladi.

2. Teng foydalanish tamoyillari

2.1. Universitet ta'limiy va ma'rifiy tadbirlarda barcha shaxslar uchun teng ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashga intiladi.

2.2. Ishtirokchilarga millati, irqi, tili, dini yoki e'tiqodi, jinsi, nogironligi, fuqaroligi yoki immigratsion maqomidan qat'i nazar, teng munosabat va hurmat ko‘rsatiladi.

2.3. Ta'limiy faoliyatda kamsitish, asossiz cheklash va teng imkoniyatlarni buzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.4. Tadbirlarni tashkil etishda imkon qadar barcha uchun qulay va inklyuziv sharoit yaratiladi, zarur hollarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlari inobatga olinadi.

2.5. Ishtirok etish shartlari ochiq, tushunarli hamda tadbir maqsadiga muvofiq belgilanadi. Qonunchilik va xavfsizlik talablaridan kelib chiqadigan asosli cheklovlar bundan mustasno.

3. Amal qilish doirasi

3.1. Ushbu Siyosat Universitet tomonidan tashkil etiladigan ochiq ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, kasbga yo‘naltirish tadbirlari, sog‘liqni saqlash bo‘yicha ma'rifiy uchrashuvlar, jamoatchilik uchun o‘quv dasturlari va boshqa ta'limiy faoliyatlarga tatbiq etiladi.

3.2. Siyosat Universitet hududida hamda kampusdan tashqarida, jumladan maktablar, texnikumlar, mahallalar va boshqa jamoat joylarida o‘tkaziladigan tegishli tadbirlarga nisbatan qo‘llaniladi.

4. Mas'uliyat va yakuniy qoidalar

4.1. Tadbir tashkilotchilari ushbu Siyosat tamoyillariga rioya etilishi va ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi yuzasidan mas'ul hisoblanadi.

4.2. Universitetning mas'ul tarkibiy bo‘linmalari Siyosat ijrosini muvofiqlashtiradi hamda uning talablarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi.

4.3. Ushbu Siyosat rektor tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Universitetning rasmiy veb-saytida ochiq e'lon qilinadi.

APPROVED
Rector of Tashkent State Medical University
Sh.A. Boymuradov
"____" _____ 2025

TASHKENT STATE MEDICAL UNIVERSITY
EQUAL ACCESS TO EDUCATIONAL AND PUBLIC ENGAGEMENT ACTIVITIES POLICY

1. General provisions

1.1. This Policy establishes the core principles for equal access to educational, public engagement, lifelong learning and community-oriented activities organised by Tashkent State Medical University (the University).

1.2. This Policy applies to all University units and personnel involved in organising and delivering such activities.

2. Principles of equal access

2.1. The University seeks to ensure equal opportunities for all individuals to participate in its educational and public engagement activities.

2.2. Participants shall be treated equally and with respect, regardless of ethnicity, race, language, religion or belief, sex or gender, disability, citizenship or immigration status.

2.3. Discrimination, unjustified exclusion and barriers to equal participation are not permitted.

2.4. The University shall seek to provide an inclusive and accessible environment and, where appropriate, consider the needs of persons with disabilities.

2.5. Participation requirements shall be transparent, understandable and relevant to the purpose of the activity. Legitimate requirements arising from applicable law and safety considerations may apply.

3. Scope

3.1. This Policy applies to public lectures, seminars, practical sessions, career guidance events, health education activities, community learning programmes and other educational activities organised by the University.

3.2. It covers relevant activities held both on campus and beyond the campus, including in schools, technical colleges, neighbourhoods and other community settings.

4. Responsibilities and final provisions

4.1. Organisers are responsible for observing the principles of this Policy and promoting equal opportunities for participation.

4.2. The relevant University units shall coordinate implementation and propose improvements where necessary.

4.3. This Policy enters into force on the date of approval by the Rector and shall be published on the University's official website.